


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 11 261,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **1,2 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **746,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **2,0 marta**) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **10 515,2** mlrd. so'mni (**2,3 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **933,8** mlrd. so'mni (**31,8 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



## UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **11 261,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **1,2 %** ga o'sish kuzatildi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish suratlari Chiroqchi, Kitob, Qarshi tumanlarda va Qarshi, Shahrizabz shaharlarida kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **93,4 %** va yirik korxonalar hissasiga **6,6 %** to'g'ri keldi.


## ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **21,6 %** ulush bilan **2 431,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## ENG QUIYI ULUSH

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Muborak tumani **2,4 %** ulush bilan **272,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2019- yil yanvar-noyabr
		2020- yil yanvar-noyabr

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **10 515,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2,3** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **93,4** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Koson (**99,3** %), Dehqonobod (**98,7** %), Nishon (**98,7** %) va Mirishkor (**98,7** %) tumanlarida yuqori ulush qayd etildi.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlari Chiroqchi (**104,4** %), Kitob (**103,4** %), Qarshi (102,3 %) tumanlarida hamda Qarshi (102,9 %) va Shahrisabz (102,9 %) shaharlarida qayd etildi.

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>11 261,8</b>	<b>101,2</b>	<b>746,6</b>	<b>2,0 m.</b>	<b>10 515,2</b>	<b>97,7</b>
<i>hududlar:</i>						
<b>G'uzor</b>	505,2	101,7	9,2	2,4 m	496,0	100,6
<b>Dehqonobod</b>	359,4	98,8	4,7	5,1 m	354,7	97,8
<b>Qamashi</b>	574,6	99,1	8,9	9,3 m	565,7	97,7
<b>Qarshi</b>	665,6	102,3	15,9	9,7 m	649,7	100,1
<b>Koson</b>	962,2	99,4	6,4	14,4 m	955,8	98,8
<b>Kitob</b>	1 008,0	103,4	38,4	264,8 m	969,6	99,4
<b>Mirishkor</b>	283,7	96,9	3,8	7,1 m	279,9	95,8
<b>Muborak</b>	272,9	96,7	10,3	63,5	262,6	98,7
<b>Nishon</b>	373,1	100,4	4,9	4,4 m	368,2	99,4
<b>Kasbi</b>	324,2	100,0	5,9	3,9 m	318,3	98,6
<b>Chiroqchi</b>	994,6	104,4	24,8	10,3 m	969,8	102,1
<b>Shahrisabz</b>	628,2	97,8	32,6	47,4	595,6	103,8
<b>Yakkabog'</b>	827,1	99,6	18,8	161,1	808,3	98,7
<b>Qarshi sh.</b>	2 431,0	102,4	546,9	2,3 m	1 884,1	88,3
<b>Shahrisabz sh.</b>	1 052,0	102,9	15,1	103,0	1 036,9	102,9

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,6 %** ga o'sdi va **746,6 mlrd.** so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **10 515,2 mlrd.** So'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2,3 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,4 %** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Koson	0,7	99,3
Mirishkor	1,3	98,7
Dehqonobod	1,3	98,7
Nishon	1,3	98,7
Shahrisabz sh.	1,4	98,6
Qamashi	1,5	98,5
G'uzor	1,8	98,2
Kasbi	1,8	98,2
Yakkabog'	2,3	97,7
Qarshi	2,4	97,6
Chiroqchi	2,5	97,5
Kitob	3,8	96,2
Muborak	3,8	96,2
Shahrisabz	5,2	94,8
Qarshi sh	22,5	77,5

■ Yirik korxonalar    □ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Koson (**99,3 %**), Dehqonobod (**98,7 %**), Nishon (**98,7 %**) va Mirishkor (**98,7 %**) tumanlar yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **6,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (**22,5 %**), Shahrisabz (**5,2 %**) Muborak (**3,8 %**) va Kitob tumanlarida (**3,8 %**) kuzatilgan.



## VILOYAT BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 413,5** ming so'm (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **0,7 %** ga kamaydi). Kitob (**101,9 %**), Chiroqchi (**101,8 %**), Qarshi (**100,2 %**) tumanlarida hamda Qarshi (**100,9 %**) va Shahrisabz (**101,6 %**) shaharlaridan tashqari qolgan barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Qarshi shahri (**8 795,1** ming so'm), Shahrisabz sh. (**7 535,6** ming so'm) va Kitob (**3 810,8** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	3 413,5	99,3
<b>hududlar:</b>		
G'uzor	2 464,4	99,5
Dehqonobod	2 428,5	96,8
Qamashi	2 111,7	97,3
Qarshi	2 672,1	100,2
Koson	3 356,0	97,3
Kitob	3 810,8	101,9
Mirishkor	2 362,5	95,0
Muborak	3 130,1	94,8
Nishon	2 430,7	98,1
Kasbi	1 643,3	98,0
Chiroqchi	2 405,4	101,8
Shahrisabz	2 827,1	96,6
Yakkabog'	3 132,9	98,0
Qarshi sh.	8 795,1	100,9
Shahrisabz sh.	7 535,6	101,6


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **933,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **31,8 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **521,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **65,6 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **412,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **53,1 %**) tashkil etdi.

### Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **521,5** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **412,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan, % da	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan, % da	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>933,8</b>	<b>100,0</b>	<b>521,5</b>	<b>100,0</b>	<b>412,3</b>	<b>100,0</b>
<i>hududlar:</i>						
<b>G'uzor</b>	41,3	4,4	22,9	4,4	18,4	4,5
<b>Dehqonobod</b>	30,7	3,3	10,9	2,1	19,8	4,8
<b>Qamashi</b>	77	8,2	49,2	9,4	27,8	6,7
<b>Qarshi</b>	34,3	3,7	4,8	0,9	29,5	7,2
<b>Koson</b>	104,5	11,2	59,6	11,4	44,9	10,9
<b>Kitob</b>	69,8	7,5	45,4	8,7	24,4	5,9
<b>Mirishkor</b>	31,6	3,4	10,7	2,1	20,9	5,1
<b>Muborak</b>	46,2	4,9	15,1	2,9	31,1	7,5
<b>Nishon</b>	46,5	5,0	19,5	3,7	27	6,5
<b>Kasbi</b>	27,6	3,0	7,7	1,5	19,9	4,8
<b>Chiroqchi</b>	210,7	22,6	104,9	20,1	105,8	25,7
<b>Shahrisabz</b>	41,0	4,4	10,0	1,9	31	7,5
<b>Yakkabog'</b>	35,9	3,8	32,6	6,3	3,3	0,8
<b>Qarshi sh.</b>	103,5	11,1	95	18,2	8,5	2,1
<b>Shahrisabz sh.</b>	33,2	3,5	33,2	6,4	-	-

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



6,1  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



186,7  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



16,3  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

67,4  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



27,0  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

31,3  
mlrd. so'm



**Tuxum**

67,3  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)**

11,0  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **521,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**186,7** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

14,4  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

91,1  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

2,9  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **412,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **292,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **108,6** mlrd. so'mni, otlar **9,4** mlrd. so'mni, parrandalar **1,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,2 %** ni tashkil etib, **242,6** mlrd. so'mga yetdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **4,2 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **94,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	242 630,2	95,8	14 224,4	72,4	228 405,8	97,7
<i>hududlar:</i>						
<b>G'uzor</b>	9 660,0	97,6	1572,3	87,5	8 087,7	99,8
<b>Dehqonobod</b>	4 656,8	98,6	-	-	4 656,8	98,6
<b>Qamashi</b>	17 584,6	98,8	-	-	17 584,6	98,8
<b>Qarshi</b>	16 932,8	97,3	-	-	16 932,8	97,9
<b>Koson</b>	6 399,6	97,2	-	-	6 399,6	97,2
<b>Kitob</b>	23 218,1	99,1	-	-	23 218,1	99,1
<b>Mirishkor</b>	4 571,9	98,8	-	-	4 571,9	98,8
<b>Muborak</b>	13 157,0	66,2	7 475,0	53,0	5 682,0	98,7
<b>Nishon</b>	7 063,9	98,4	-	-	7 063,9	98,4
<b>Kasbi</b>	3 354,5	99,6	-	-	3 354,5	99,6
<b>Chiroqchi</b>	12 521,0	98,8	-	-	12 521,0	98,8
<b>Shahrisabz</b>	12 494,2	98,0	-	-	12 494,2	98,0
<b>Yakkabog'</b>	11 415,3	98,9	-	-	11 415,3	98,9
<b>Qarshi sh.</b>	85 783,5	97,8	5 177,1	141,7	80 606,4	95,9
<b>Shahrisabz sh.</b>	13 817,0	100,1	-	-	13 817,0	100,1

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 435,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **13,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **571,8** mlrd. so'mni (**39,6 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 863,8** mlrd. so'mni (**0,7 %** ga kamayish) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes subyektlari

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Koson (**663,6** marta) Kitob (**1009,5** marta) va G'uzor tumanlarida (**62,8** marta) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Koson (**141,6** %), Shahrisabz (**121,2** %), Qamashi (**124,7** %), G'uzor (**115,8** %) va Yakkabog' (**106,6** %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	2 435,5	86,3	571,8	60,4	1 863,8	99,3
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	93,8	115,8	12,6	62,8 m.	81,2	100,5
Dehqonobod	31,2	98,1	-	-	31,2	98,1
Qamashi	85,2	124,7	37,2	184,6	48,0	99,6
Qarshi	113,4	101,1	25,6	113,1	87,7	98,0
Koson	147,2	141,6	43,8	663,6 m.	103,4	99,5
Kitob	89,5	104,9	5,9	1009,5 m.	83,5	97,9
Mirishkor	80,6	85,4	47,7	78,8	32,9	97,2
Muborak	55,5	60,4	16,4	31,4	39,1	98,7
Nishon	44,9	60,9	12,5	30,8	32,4	97,8
Kasbi	55,0	77,2	27,0	62,8	28,0	99,1
Chiroqchi	125,4	99,3	-	-	125,4	99,3
Shahrisabz	73,7	121,2	14,0	41,6 m.	59,8	98,8
Yakkabog'	66,2	106,6	5,6	19,4 m.	60,5	98,0
Qarshi sh.	1 257,5	76,6	323,4	45,9	934,1	99,8
Shahrisabz sh.	116,4	98,5	-	-	116,4	99,7

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **1 863,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **0,7** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **76,5** % ni tashkil etdi.

